



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-may

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-may oylarida bozor xizmatlari hajmi 54498,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 129,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1666,1 ming.so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.

2018 yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 54498,0 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni transport xizmatlari (30,2 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-may oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)



Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.


2018 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (133,6 %), moliyaviy xizmatlar (129,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (118,9 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (113,6 %) eng yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

Transport xizmatlari ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida eng yuqori hajmni - 16479,2 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu sanoat, qurilish, tashqi va ichki savdo, qishloq xo'jaligi, sayyohlik kabi tarmoqlarda ushbu xizmatlarga bo'lgan talabning yuqoriligi bilan izohlanadi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Shu bilan birga, savdo xizmatlari hajmi - 15025,4 mlrd.so'm, moliyaviy xizmatlar - 7492,0 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 3734,5 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshganligi qayd etildi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (48,3 %) tashkil etadi.

Quvurlar orqali tashish xizmatlari jami transport xizmatlarining 18,5 % ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-may oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %




Temir yo'l transportida ko'rsatilgan xizmatlar transport xizmatlari umumiy hajmi 15,3 % ni tashkil etadi.

Yuklar va yo'lovchilarni havo transportida tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmida 10,6 % ga yetdi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari jami hajmining 7,3 % ni tashkil qiladi.

Transport mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtda qulayligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi tufayli avtomobil transporti transportning boshqa turlariga nisbatan talab eng yuqori bo'lgan transport turlaridan biridir.

**2018 yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi
(jami hajmga nisbatan, %)**



Avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida eng katta ulush Toshkent shahri (16,7 %), Toshkent (13,8 %) va Samarqand (11,7 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (1,6 %), Jizzax (2,7 %), Navoiy (2,7 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,2 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 129,4 % ga yetdi.

Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'atining oshishi Surxondaryo (140,5 %), Jizzax (136,7 %), Toshkent (136,2 %), Navoiy (135,5 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (131,3 %) kuzatildi.

2018 yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati, %

Eng past o'sish sur'ati, %

Buxoro viloyati - 115,6 %

Xorazm viloyati - 120,7 %

Andijon viloyati - 121,2 %

Namangan viloyati - 121,7 %

Farg'ona viloyati - 122,7 %

Qashqadaryo viloyati - 123,3 %

Sirdaryo viloyati - 125,2 %

Eng yuqori o'sish sur'ati, %

Surxondaryo viloyati - 140,5 %

Jizzax viloyati - 136,7 %

Toshkent viloyati - 136,2 %

Navoiy viloyati - 135,5 %

Toshkent shahri - 131,3 %


Samarqand viloyati - 129,5 %

Qoraqalpog'iston Respublikasi - 129,4 %

Moliyaviy xizmatlar bo'yicha boshqa hududlarga nisbatan eng past o'sish sur'atlari Buxoro (115,6 %), Xorazm (120,7 %), Andijon (121,2 %), Namangan (121,7 %) va Farg'ona (122,7 %) viloyatlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (123,2 %), Navoiy (120,3 %), Namangan (120,0 %), Samarqand (119,9 %), Buxoro (118,8 %) va Jizzax (117,6 %) viloyatlari, shuningdek Toshkent shahrida (120,5 %) kuzatildi.

2018 yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha nisbatan past o'sish sur'atlari Xorazm (113,9 %), Sirdaryo (114,8 %), Surxondaryo (114,9 %), Qashqadaryo (115,7 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (115,0 %) qayd etildi.

**2018 yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	54498,0	107,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1626,6	106,2
viloyatlar:		
Andijon	2988,2	105,4
Buxoro	2370,6	104,9
Jizzax	1129,9	107,5
Qashqadaryo	2605,6	104,8
Navoiy	1412,8	110,7
Namangan	2285,0	105,9
Samarqand	3682,2	106,6
Surxondaryo	2050,1	106,7
Sirdaryo	707,7	105,6
Toshkent	4078,1	103,5
Farg'ona	3391,5	105,3
Xorazm	1587,6	104,8
Toshkent shahri	17451,7	112,5

Hududlar orasida eng katta hajm Toshkent shahri (17451,7 mlrd.so'm), Toshkent viloyatiga (4078,1 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajm Sirdaryo (707,7 mlrd.so'm), Jizzax (1129,9 mlrd.so'm) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar orasida Toshkent shahri etakchi o'rinni egallaydi. Toshkent shahrining ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 32,0 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Toshkent (7,5 %), Samarqand (6,8 %), Farg'ona (6,2 %) va Andijon (5,5 %) viloyatlari tashkil etadi.


2018 yil yanvar-may oylarida respublika bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %



Hududlar orasida eng past ulushlar Sirdaryo (1,3 %), Jizzax (2,1 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (2,9 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,0 %) to'g'ri keladi .

2018 yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1666,1 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 105,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida - 7064,3 ming.so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,6 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida - 813,7 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil etdi.

Davlat statistika qo'mitasi

Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi

Mas'ul: Q.Berdiqulov

(71) 230-80-59